

ISHLAB CHIQRISHDA SODIR BO'LADIGAN BAXTSIZ XODISALAR
VA KASB KASALLIKLARI

S.S.Ibroximova

Agranomiya yo'nalishi talabasi,

Ilmiy raxbar: Sh.M.Tairov

Texnologik ta'lim kafedra o'qituvchisi.

Farg'ona davlat universiteti

Baxtsiz hodisalar, jarohatlanish, kasbiy kasalliklar va zaharlanishlarning asosiy sabablari.

Xavfsizlikning talab va qoidalariga rioya qilmaslik, sanitariya-gigiyena me'yorlari, hamda mehnat intizomining buzilishi baxtsiz hodisalarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Baxtsiz hodisa (jarohatlanish) – inson tanasining teri yoki ayrim qismlari tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasida shikastlansa, buni baxtsiz hodisa (jarohatlanish) deb ataladi.

Kasbiy kasalliklar – ishchi - xodimlarga zararli ish sharoitlarining salbiy ta'siri natijasida hosil buladigan kasalliklar kiradi.

Zararli ish sharoitlariga – yomon (nobob) iqlim sharoitlari, zaharli changlar, me'yoridan ortiq shovqin va titrash, bosimning me'yoridan oshishi, yorug'likning yetarli bo'lmasligi va boshqalar kiradi.

Korxonalarda uchraydigan baxtsiz hodisa, kasb kasalliklari, va zaharlanishlarning sabablari 4-ga bo'linadi:

Tashkiliy sabablar – Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'l-yo'riqlar o'tmagan, ish joylarini noto'g'ri tashkil etilgan, ish joylari yo'laklarning to'silishi, dastgohlar vaqtida sozlanmaganligi, yaroqsiz asbob uskunalarni ishda qo'llash, asosiy ish vaqtidan tashqari ishlash.

Gigiyenik sabablar – Oqova suvlarda va havodagi zararli moddalarning yuqori kontsentratsiyasi mavjudligi, nobob iqlim sharoitlari, yorug'likni yetarli emasligi, shovqinning yuqoriligi, sanitariya-maishiy xonalarning etishmasligi va tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi.

Texnik sabablar – Mashina, uskunalarning kamchiliklari va nosozligi, og'ir ishlarni mexanizatsiyalashtirilmaganligi, xavfsizlik to'siqlar yo'qligi, uskunalarning noto'g'ri joylashtirilishi va ularning nosozligi.

Ruhiy-fiziologik sabablar – Ishlarning og'irligi, me'yoridan ortiq charchash, ishning monotonligi (bir xilligi), ziyraklikning pasayishi, xavfsizlik qoidalarini



buzilishi, mehnat intizomining buzilishi, ishchilarning psixofiziologik sifatlarini bajarayotgan ishga mos kelmasligi yoki uning nosog'lomligi.

Korxonalar rahbarlarining va muhandis-texnik xodimlarning kun tartibidagi asosiy vazifalaridan biri “Ma'muriyat mehnatni muhofaza qilishning zamonaviy vositalarini joriy etishlari va ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklarini oldini oladigan sanitariya sharoitlarini ta'minlashi shart (“MMQ to'g'risida”gi qonunning 18-moddasi).

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishlarini tekshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo'linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

– jabrlanuvchiga zudlik bilan yordam ko'rsatishi va uni tibbiy sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

– tekshirish komissiyasi ish boshlashiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini, hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo'lsa shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti salomatligiga tahlika solmayotgan bo'lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab turishi zarur.

Baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi korxonalar rahbari darhol hodisa to'g'risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxonalar xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilishi shart.

Korxonaning tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona) bir sutka ichida yordam so'rab murojaat qilgan xodimlar shu jumladan, xizmat safaridagi va korxonalar ishlab chiqarish obyektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergan har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga, kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

Ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi. Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya: – uch sutka ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarining buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkon bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

– baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotish chora-tadbirlari ko'rsatilgan H-1shaklidagi dalolatnomani kamida uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.



Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko‘radi va tekshirish tamom bo‘lgandan so‘ng uch sutka davomida tasdiqlangan H-1shakldagi dalolatnomalarni:

– jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga, tekshirish materiallari bilan korxonaning mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga, davlat texnika nazoratchisiga yuboradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. «Pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining integrativ kasbiy faoliyatiga tayyorgarligi». Tairov Sh.M, Karimjonov D.U. Nishonov O.T. // 2023/1/9 // International Journal of Education, Social Science & Humanities.// Том 11 // Номер1// Страницы 226-230 // Издатель International FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786.

2. “Integration as a trend in the development of pedagogy”// Tairov Sh.M. // ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023.

3. “Fan va ta’limda integratsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi”// Tairov Sh.M. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(4), April, 2023.

4. “Changes in the functional capabilities of the female organism during sports” // Sh. M. Tairov// In Volume 4, Issue 3 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) March, 2023.

5. “Pedagogik integratsiya ta’limni integrallash toifasi sifatida”// Sh. M. Tairov// (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(6), June, 2023.

6. «Bo‘lajak o‘qituvchilarning hayot faoliyati xavfsizligi va texnologik ta’lim sohasidagi kasbiy tayyorgarligi mazmuni o‘rtasidagi bog‘liqlik»./ Sh.Tairov, Sh.Dehqonova, S.Ismoilova./ Том1/ Номер4 / Страницы 7-9 // 2022/12/25.

7. «Use of foreign experience in the process of professional training of life safety teachers»// Sh.M.Tairov // Journal of Pedagogical Inventions and Practices // Том 13 // Страницы 1-2 // 2022/10/7.

8. «Sporchilarning oziqlanishi: masalaning mohiyati va muammolari».Sh M Tairov // 2022/6/5 // Ijodkor o‘qituvchi // Том 2 // Номер19 // Страницы 287-290.

9. «Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasining mohiyati, inson faoliyatidagi tutgan o‘rni». “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” Том 3 // Номер 3-qism // Страницы 24-25 // 2022/5/20.



10. «Ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishning o'rni». Sh Tairov, X Bannopov. // Збірник наукових праць scientia. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/16056> // 2021/11/17.
11. «Moslashuv (adaptatsiya) davridagi organizm funksiyalarining dinamikasi va uning bosqichlari». //Sh. M.Tairov. // Новости образования: исследование в XXI веке. // Том1// Номер 3 // Страницы // 456-458. 2022/10/1.
12. «Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy jihatlar». // Sh M Tairov. // IJODKOR O'QITUVCHI. // Том 2 // Номер 19 // Страницы 291-294 // 2022/6/5.
13. «Чрезвычайные и критические изменения климата в странах центральной Азии». Ш. М. Таиров, Б. Б. Абдуллаев. Universum: технические науки. Номер 2-1 (71) // Страницы 5-6 // 2020.
14. «Влияние терапии экватором и тессироном на клиническую симптоматику и функциональное состояние эндотелия сосудов у больных неспецифическим аорто-артериитом»././ Ш.М Таиров, М.А Абдуллаева, Е.Г Муйдинова, // Наука молодых–Eruditio Juvenium. // Номер 3 // Страницы 40-45 // 2015.
15. «Влияние пандемии на систему образования». Ш.М Таиров././ Наука сегодня: проблемы и пути решения. // 2021.
16. Favqulodda vaziyatlarda xavflarni boshqarish sohasida ilmiy-metodik asoslarni takomillashtirish va boshqaruv mexanizmlarni muvofiqlashtirish //Sh.M.Tairov// FarDU. ILMIIY XABARLAR //2024/№1.

